

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

KARIMOV ZAFAR BEKTURDIYEVICH

**O‘ZBEKISTON HUDUDIDA SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARIXI
(MIL. AVV. IV – MILODIY IV ASRLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Karimov Zafar Bekturdiyevich

O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyati tarixi (mil. avv. IV – milodiy IV asrlar)..... 5

Каримов Зафар Бектурдиевич

История градостроительной культуры на территории Узбекистана (IV в. до н.э. – IV в. н.э.)..... 25

Karimov Zafar Bekturdiyevich

The history of urban planning culture in the territory of Uzbekistan (4th century BC – 4th century AD).....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

KARIMOV ZAFAR BEKTURDIYEVICH

**O‘ZBEKISTON HUDUDIDA SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARIXI
(MIL. AVV. IV – MILODIY IV ASRLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Tar1662 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sabirov Kurbanbay

Tarix fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich

Tarix fanlari doktori, professor

Satimov Bahodir Mangliboy o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "31" iyul soat 10 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16.). e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A1842 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16; e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "18" iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil "18" iyul dagi 11 raqamli reestr bayonnomasi.)



M.K.Saribaev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., dotsent

X.X.Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

U.I.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarixshunosligida qadimgi xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ma'naviy-madaniy olami, diniy-siyosiy qarashlarini yoritishda shaharsozlik madaniyatini yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tarixida ilk davlatchilik va u bilan bog'liq shaharlarning asosiy moddiy-ma'naviy manba sifatidagi ahamiyati tan olingan ilmiy haqiqatdir. Jahonda qadimdan shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi inson ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, etnomadaniy hayoti bilan uzviy bog'liqdir. Shu jihatdan olganda tarixiy taraqqiyotning uzviy qismi bo'lgan shaharlar tarixini xolisona o'rganish, ularning jahon tarixida tutgan o'rnini yangi asoslarda ko'rib chiqish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo hududi tarixiy shaharsozligi masalalari yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan keng darajada tadqiq qilingan va hozirgi davrda ham keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlarining jahonda tashkil topgan ilk shaharlar bilan bir xil davrda tashkil topganligiga oid ilmiy qarashlar fanda o'z isbotini topgan bo'lsa-da, uning moddiy-ma'naviy asosini isbotlash maqsadida bir qancha ilmiy izlanishlar, arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Shu jihatdan, antik davr shaharsozligi, shaharlar zamiridan o'sib chiqqan mikrovohalar va ular doirasidagi madaniy-xo'jalik markazlarining o'ziga xos xususiyatlarini tipologik-topografik jihatlari asosida o'rganish mavzuning xalqaro miqyosdagi dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston hududida olib borilgan va Yangi O'zbekiston davrida tashkil qilinayotgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar mamalakatimiz tarixining o'rganilmagan tomonlarini yoritishga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hududida ko'plab shaharlar, qal'alar, turarjoylar aniqlandi. Tarixiy yodgorliklarni asrash va shaharsozlik tarixi bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilib, shu asosda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqot natijasi mil. avv. IV – milodiy IV asrlarda O'zbekiston hududida tashkil topgan shaharlar, mikrovohalar markazlarining topografik joylashuvi va tipologik xususiyatlarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur tarixiy davrda aholining joylashishi, turarjoylarning sifat va miqdoriy jihatdan o'zgarishlari, etnik munosabatlar va siyosiy jarayonlar bilan farqlanish xususiyatlariga ega. Mazkur xususiyatlarning tadqiqotchilar asarlarida yoritilish masalalari, etnik jarayonlarning geografik manzarasi, shaharlarning joylashish xususiyatlari, tipologiyasi va mikrovohalarning tarixiy o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar tizimlashtirilmaganligini inobatga olib, ushbu mavzuni tanlab olish zarurati tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori hamda 2018-yil 18-yanvar F-5181-son “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida” gi Farmoyishida qayd qilingan vazifalarning

bajarilishida dissertatsiya mavzusi mazmunini aks ettirgan ma'lumotlar ma'lum darajada xizmat qiladi¹.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston viloyatlarida arxeolog olimlar tomonidan antik davr aholisi turarjoylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini asos qilib olgan nashrlarda qayd qilingan ma'lumotlardan kelib chiqib, quyidagi tarixiy davrlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1-tarixiy davr XIX asr 80-yillari – 1930-yillar;

2-tarixiy davr 1940-yillar o'rtalari – 1980-yillar;

3-tarixiy davr 1991-2023-yillar manbashunosligi.

Birinchi tarixiy davrda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlarining Toshhovuz viloyatidagi Ko'zaliqir va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi yodgorliklarda qisman qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar mil. avv. VI – IV asrlarga oid bo'lgan². Tadqiqotchi S. P. Tolstov fundamental asarida Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'alardan olingan moddiy ashyolar mil. avv. IV – milodiy IV asrlarga mansubligini qayd qilgan³. Ya. G'. G'ulomov Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a va Xazorasp yodgorliklarini mil. avv. IV asrga oid, degan xulosaga kelgan⁴. G. V. Grigoryev Samarqand yaqinida Tali-barzudan olingan ashyolarni mil. avv. V – milodiy II asrga oidligini qayd qilgan⁵. M. Ye. Masson rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya Eski Termizda qazishma ishlarini olib borishi munosabati bilan mil. avv. IV – III asrlarga mansub ashyolarni olgan⁶.

Ikkinchi tarixiy davrda O'zbekiston hududida turli arxeologik ekspeditsiya va guruhlar tomonidan aholi turarjoylarida keng qamrovli izlanishlar olib borilishi munosabati bilan antik davrda kechgan tarixiy jarayonlarni yoritadigan noyob ashyolar olingan. Xorazm hududidagi aholi turar-joylarida qazish ishlarini, avvalo, S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi, Rossiyaning Moskva va Sankt-Peterburg ishlari ilmiy markazlari bilan hamkorlikda ekspeditsiyalar olib borganlar. 1950-yildan boshlab Xorazmning S. P. Tolstov, Ye. Ye. Nerazik, Yu. P. Manilov, Yu. A. Rapoport, V. N. Vakturskaya, M. Mambetullayev, G'. K. Xodjaniyazov asarlarida antik davr shaharlarida olib borilgan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони; 2017 йил 17 февралдаги "Фанлар академияси фаолияти, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори; 2018 йил 18 январ "Моддий-маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида"ги Фармойиши. [Электрон ресурс]. www.lex.uz. (Murojaat qilingan sana: 10.11.2024).

² Толстов С. П. Древности Верхнего Хорезма. – М.: "Наука", 1941. Вып. 1. – С. 177-178.

³ Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 84-100.

⁴ Ғулумов Я. Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: "Фан", 1959. – Б. 81-87.

⁵ Григорьев Г. В. Тали-Барзу. – М.: "Наука", КСИИМК, 1940. Вып. VI. – С. 24-34.

⁶ Массон М. Е. Городища Старого Термеза и их изучение // Труды УзФан. Серия 1, 1940. Вып. 2. – С. 101-102.

arxeologik izlanishlari natijalari qayd qilingan⁷. Zarafshon vodiysida O. N. Inevatkina, R. X. Suleymanov, B. Urakov, M. Turebekov asarlarida antik davr shaharlari tarixiga oid ma'lumotlar olingan⁸. Surxondaryo viloyatida Eski Termiz, Zartepa, Dalvarzintepa yodgorliklaridan antik davr tarixiga oid moddiy ashyolar olingan⁹. Toshkent vodiysi antik davr shaharlariga oid natijalar Yu. F. Buryakov, M. I. Filanovich tadqiqotlarida qayd qilingan, Yu. A. Zadneprovskiy, N. G. Gorbunova tadqiqotlarida Farg'ona vodiysidagi antik davri shaharlari to'g'risida ma'lumotlar o'rin olgan¹⁰.

Mustaqillik yillarida xorijiy mamlakatlar hamda mahalliy qadimshunos olimlar hamkorligida zaminimiz hududida antik davr shaharlarida arxeologik izlanishlar olib borilishi natijasida yangi moddiy ashyolar olingan. 1995-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi tarix, arxeologiya va etnografiya institutining arxeologiya guruhi Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari hamkorligida tashkil etilgan ekspeditsiya xodimlari bilan birgalikda Oqshaxonqal'a, Toshxirmontepada olib borilgan qazishma ishlar natijasida antik davr tarixiga oid noyob manbalarni olishga muvassar bo'lganlar¹¹.

2019-yilda Rossiya Fanlar akademiyasi etnologiya va antropologiya instituti va Rossiya Fanlar akademiyasi sharqshunoslik instituti, Sharq davlat muzeyi hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi tarix, arxeologiya va etnografiya institutining arxeologiya bo'limi hamda Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti birlashgan Janubiy Orol Qoraqalpog'iston Rossiya kompleks arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan Katta Qirgizqal'ada qazishma ishlari olib borilib, antik davrga oid moddiy ashyolarni olishga erishishgan¹².

Mahalliy qadimshunoslar M. Mambetullayev, G'. K. Xodjanioyov, K. Sabirov, S. R. Baratov hamda B. Sadullayevlarning tadqiqotlarida Xorazmning antik davr

⁷ Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: “Наука”, 1967. – С. 117-135, 204-226.; Неразик Е. Е. К проблеме развития городов Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1981. – С. 140-152.; Маньолов Ю. П. Работы на городище Пил-кала в 1963 г. – Ташкент: “Фан”, 1965. – № 3. – С. 25-35.; Кдырнийзов М. Ш., Ходжаниязов Г. К. Раскопки оборонительных сооружений // Вопросы истории, археологии и этнографии ККАССР. – Нукус, “Каракалпакстан”, 1990. – С. 92-131.; Рапопорт Ю. А. Раскопки городища Шах-санем в 1952 г // Тр. ХАЭЭ. Т.2. – М.: “Наука”, 1958. – С. 297-320.

⁸ Пидаяев Ш. Қадимий Термиз. – Тошкент: “Фан”, 2001. – 55 б.; Пугаченкова Г. Н., Тургунов Б. А. Исследование Дальверзин тепе в 1972 г // Древняя Бактрия. – Л., 1974. – С. 58-74.; Новое в изучении Дальверзинтепе. СА, – № 4. – М.: 1971. – С. 186-203.; Пугаченкова Г. Н. Халчаян. – Ташкент, 1966. 288 с.

⁹ Иневаткина О. Н. Цитадель Афрасиаба работы 1977-1979 гг. Ташкент, “Фан”, ИМКУ. Вып. 18. 1983. – С. 76-90; Сулейманов Р. Х., Ураков Б. Результаты предварительного исследования античного городища селения Рамыш / ИМКУ. Вып. 13. – С. 19-77.; Сулейманов Р. Х. Туребеков М. Этапы развития фортификационной системы Еркургана / ИМКУ. Вып 14. 1978. – С. 60-65.

¹⁰ Буряков Ю. Ф. Археологические материалы городища Кавардан // ИМКУ. – Ташкент: Фан, 1977. Вып. 13. – С. 70-87.; O'sha muallif. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: “Фан”, 1982. – С. 23-24.; Филанович М. И. Ташкент: зарождение и развитие города и городской культуры. – Ташкент: “Фан”, 1983. – С. 80-94.

¹¹ Ходжаниязов Г. К., Хелмс С. У., Снеддон Э. Археологические исследования на городище Акшаханкале в 2001 году // Археологические исследования в Узбекистане в 2001 г. – Самарканд, 2002. – С. 25-35.; Беттс А., Ягодин В. Н., Кидд Ф., Амиров Ш., Искендерова А. Археологические исследования на городище Казаклыяган (Акшахан) // Археологические исследования в Узбекистане в 2004-2005 годы. – Ташкент: “Фан”, 2006. – С. 167-175.

¹² Китов Е. П., Болелов С. Б., Балахванцев А. С. Возвращение в древний Хорезм: Исследования совместно Российско – Каракалпакской экспедиции на Устюрте и Большом Кырк-кызе. – М.: Восток, 2019. – № 6. – С. 53-68.

tarixiga oid ma'lumotlar qayd qilingan. Zarafshon vodiysida M. X. Isomiddinov Afrosiyob va Ko'ktepadan, R. Sulaymonov Yerqorg'ondan, Farg'ona vodiysida Dalvarzintepa, Eylaton, Sarvontepa, Sho'rabashat, Quva, Mingtepa, Axsiket va Marg'ilon shaharlaridan, Toshkent vodiysida Kanka, Kavardan, Qulota, Qovunchitepa va Shoshtepa yodgorliklaridan antik davrga oid moddiy ashyolar olingan¹³. Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili birinchi bobda aks ettirilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning tarixiy-geografik hududlaridagi antik davr shaharlari tarixini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonning antik davri geografik holatida yuz bergan o'zgarishlar aholining joylashish xususiyatlarini izohlash;

Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi geografik kenglikda shaharlarning joylashishini, hududiy chegaralarini va kartografiyasini yoritish;

antik davr jamiyatini qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik munosabatlar rivojlanishining umumjihatlariga va o'ziga xos xususiyatlariga aniqlik kiritish;

tarixiy davr, uning turli bosqichlarida kechgan jarayonlar markazi bo'lgan shaharlar vazifasini tahlil qilish;

antik davr shaharlari tarixi asosida o'zbek davlatchiligi va shaharsozligining o'zaro aloqadorligini izohlash;

O'zbekistonning antik davri shaharlari tarixida yaxlit tadqiqot yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston antik davri shaharlari tarixini o'rganish belgilangan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston tarixiy-geografik hududlarida antik davri aholisining shaharsozlik madaniyatini rivojlantirish sohasidagi bunyodkorlik faoliyati tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Xronologik izchillik, tarixiy tahlil, mantiqiy xulosa, qiyoslash va umumlashtirish, asoslab berish, etnografiya, arxeologiya, geografiya kabi yordamchi fanlardan foydalanish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'rta Osiyo markazida joylashgan O'zbekistonning joylashishi, geografik manzarasi, tabiati va iqlimi sharoitida o'troq-ziroatkor aholining shaharsozlik madaniyatini rivojlantirishdagi bunyodkorlik harakati natijalariga tasnif berilgan;

XX asr adabiyotlarida va XXI asr boshlaridagi nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar, nazariy tahlil asosida vujudga kelgan chuqurlashgan yondashuvlar

¹³ Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (Города и поселения в IV в. до н.э – IV в.н.э): Автореф. дис. док. ист наук. – Ташкент, 1994. – 42 с.; Ходжаниязов Ф. К. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007. – Б. 22-57.; Сабиров К. Хоразмнинг кишлок ва шаҳарлари муҳофаа иншоотлари. – Тошкент: “Фан”, 2009. – 195 б.; Садуллаев Б., Бобожанов Р. Катқалъа. – Хива, 2008. – 25 б.; Исамиддинов М. Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002. – 255 с.; Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб (проблемы цивилизации Узбекистан VII в. до н.э – VII в.н.э). – Ташкент, 2000. – 342 с.; Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент: “Тафаккур”, 2013. – С. 29-227.

asosida aholi migratsiyasi natijasida bunyod qilingan turarjoylar, madaniy-xo‘jalik markazlari, ular doirasidagi mikrovohalarning insoniyat faoliyatidagi tarixiy o‘rni oydinlashtirildi;

Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi hududlarda istiqomat qilgan aholining shaharsozlik madaniyatida erishgan natijalari yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida yaxlit bir tadqiqotda aks ettirildi hamda shaharlarning qadimgi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar rivojlanishining tarixiy ahamiyati izohlandi;

antik davr shaharlarining joylashish xususiyatlari, ularning hududiy chegaralari, kartografiyasi, tarixiy jarayonlardagi rivojlanishi, siyosiy birlashmalar tizimida ma‘muriy-hududiy va diniy-ma‘naviy markazlar vazifasini bajarganliklariga izoh berildi. Shu bilan birga, ularning Buyuk Karvon yo‘lida muhim tayanch vazifasini bajarganligi tahlil qilindi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mavjud ilmiy ma‘lumotlar tizimlashtirilib, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida O‘zbekiston tarixiy-geografik hududlarida ilk shaharlar zamiridan o‘tib chiqqan turarjoylarning, antik davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlari rivojlanishi tahlil qilingan;

tadqiqot mazmunini qamrab olgan ma‘lumotlar asosida madaniy-xo‘jalik markazlari rivojlanishining mezoni bo‘lgan shaharlarning kartografiyasini yoritish masalalari yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida tizimlashtirildi;

tadqiqot natijalarini fanlararo (arxeologiya, etnologiya, antropologiya, etnogeografiya va etnodemografiya) tadqiqotlarda qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi hozirgi davr tarix fanida aprobatsiyadan o‘tgan usullar va e‘tirof etilgan yondashuvlarning qo‘llanilganligi, asl manbalar va ilmiy adabiyotlar ma‘lumotlaridan foydalanilganligi va olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya mavzusi mazmunini qamrab olgan ma‘lumotlarning ilmiy ahamiyati antik davr jamiyati aholisining jamiyatning barcha sohalarida erishgan natijalari asos bo‘lgan antik davr shaharlarining joylashishi, tabiiy resurslardan unumli foydalanib, shaharsozlik madaniyatini rivojlantirgan aholi yozma manbalarda turli atamalarda qayd qilingan bo‘lsa-da, ularning bosib o‘tgan tarixiy tajribasini o‘rganishda yangicha innovatsion qarashlardan foydalanish, tarixiy tadqiqot usullarini yanada takomillashtirish, shu asnoda tarix fanini yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan izohlanadi;

tadqiqotda qayd qilingan ma‘lumotlarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, antik davrda markazlashgan davlatlar boshchiligida shaharlar qurilishi ichki siyosatini qo‘llab-quvvatlagan o‘troq ziroatkor aholining bunyodkorlik faoliyatlaridan oliy o‘quv yurti talabalariga O‘zbekiston tarixining shaharsozlik madaniyati bo‘limini o‘rgatishda, shuningdek, monografiya, o‘quv qo‘llanmalari, referatlar, kurs ishlarini tayyorlashda, axborot-resurs markazlari bazasini boyitishda, madaniy meros obyektlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berishda hamda xalqaro va ichki turizmga ma‘lumot berishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyati tarixini (mil. avv. IV – milodiy IV asrlar) tadqiq etish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va xulosalar asosida:

O‘rta Osiyo markazida joylashgan O‘zbekistonning joylashishi, geografik manzarasi, tabiati va iqlimi sharoitida o‘troq-ziroatkor aholining shaharsozlik madaniyatini rivojlantirishdagi bunyodkorlik harakati natijalariga tasnif berilganligi bo‘yicha natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021 – 2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san’ati tarixi” nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 10/320-sonli dalolatnomasi). Bu natijalar O‘zbekiston hududida antik davr shaharsozlik madaniyati tarixiga oid yangi ilmiy xulosalarning O‘zbekiston tarixidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berishga imkoniyat yaratadi;

XX asr adabiyotlarida va XXI asr boshlaridagi nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlar, nazariy tahlil asosida vujudga kelgan chuqurlashgan yondashuvlar asosida aholi migratsiyasi natijasida bunyod qilingan turarjoylar, madaniy-xo‘jalik markazlari, ular doirasidagi mikrovohalarning insoniyat faoliyatidagi tarixiy o‘rni oydinlashtirilganligi to‘g‘risidagi natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021 – 2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san’ati tarixi” nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 10/320-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy natijalar loyiha doirasida tayyorlangan dastur, monografiya va elektron resurslarni mazmunan boyitish imkonini bergan;

Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi hududlarda istiqomat qilgan aholining shaharsozlik madaniyatida erishgan natijalari yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida yaxlit bir tadqiqotda aks ettirildi hamda shaharlarning qadimgi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar rivojlanishining tarixiy ahamiyati izohlanganligidan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” nomli eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 7-fevraldagi 05-09-135-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan yoshlarni tarixiy bilimlarini oshirish va O‘zbekiston tarixining o‘rganilmagan sahifalarini yangi tadqiq etilgan ilmiy ma’lumotlar asosida ochib berishda foydalanish mumkin;

antik davr shaharlarining joylashish xususiyatlari, ularning hududiy chegaralari, kartografiyasi, tarixiy jarayonlardagi rivojlanishi, siyosiy birlashmalar tizimida ma’muriy-hududiy va diniy-ma’naviy markazlar vazifasini bajarganliklariga izoh berildi. Shu bilan birga, ularning Buyuk xalqaro karvon yo‘lida muhim tayanch vazifasini bajarganligi to‘g‘risidagi tahliliy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 7-fevraldagi 05-09-135-son ma’lumotnomasi). Natijalarning qo‘llanilishi teletomoshabinlarni O‘zbekiston hududida antik davr shaharsozlik madaniyati to‘g‘risida arxeologik ma’lumotlardan unumli foydalanish

borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida yaqindan tanishtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli qisqartmalar va ilovadan iborat bo'lib, ishning tadqiqot qismi 131 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Shaharsozlik madaniyati tarixining manbalarda aks etishi va tarixshunoslik masalalari**" deb nomlangan va uning "*O'zbekiston viloyatlari antik davr shaharlarida arxeologik izlanishlar natijalari*" deb nomlangan birinchi paragrafida XX asr adabiyotlari va mustaqillik yillaridagi o'troq ziroatkor aholi tomonidan bunyod qilingan turarjoylarda arxeologik tekshirishlar natijalarini quyidagi tarixiy davrlarga ajratib o'rganildi:

Birinchi tarixiy davr – XIX asrning 80-yillari – 1930-yillar;

Ikkinchi tarixiy davr – 1940-yillar o'rtalari - 1980-yillar;

Uchinchi tarixiy davr – 1991 – 2023-yillar.

Birinchi tarixiy davrda quyidagi ma'lumotlar jalb qilinadi: Markaziy So'g'd dehqonchilik vohasini qadimiy shaharlaridan biri-Smarkanda-Marqanda-Afrosiyob-Samarkand. V. L. Vyatkin, M. Ye. Masson, V. V. Bartold asarlarida Afrosiyob yodgorligi to'g'risida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar tadqiqotchilarning shaharning tarixini o'rganishlari uchun ochqich kalit vazifasini bajargan¹⁴.

1936 – 1938-yillarda Zarafshon arxeologiya ekspeditsiyasi guruhi rahbari G. V. Grigoryev tomonidan Samarqand shahri yaqinidagi Tali-Barzuda olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar yodgorlikning tarixiy davri mil. avv. VI-V – milodiy VIII asrlarga oid bo'lganligini ko'rsatadi¹⁵.

¹⁴ Вяткин В. Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилоята – СКСО, VII. – Самарканд, 1902. – С. 20-21; Массон М. Е. К периодизации древней истории Самарканда // – М.: "Наука", 1950. ВДИ-4. – С. 57-58; Бартольд В. В. Сочинения. – М-Л.: "Наука", 1963-1966. Т.I-IV. – С. 138-139.

¹⁵ Григорьев Г. В. Городище Тали-Барзу. – ТОВГЭ. – Л., 1940. Вип.2. – С. 87-104.

A. I. Terenojkin 1937-yilda Xorazmning Sho'raxon va Sulton Uvays tog'i oralig'ida joylashgan aholi turarjoylarini ro'yxatga olib, Ayozaqal'a-1, 2, Pilqal'a, Katta Guldursun, Teshikqal'a va Burgutqal'a yodgorliklarini arxeologik xaritada joylashtirib, Burgutqal'ada qisman qazishma ishlarini olib borib, ilk o'rta asrlarga oid ashyolarni olgan¹⁶. A. I. Terenojkinning xizmati shundan iborat bo'ldiki, yuqorida qayd qilingan yodgorliklar tasvir qilingan kartografiya S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasining tashkil qilinishiga asos bo'lgan. 1938 – 1941-yillarda M. Ye. Masson rahbarligidagi Termiz arxeologiya-kompleks ekspeditsiyasi Eski Termiz arkida o'tkazilgan arxeologik izlanishlar munosabati bilan mil. avv. IV – III asrlarga mansub moddiy ashyolarni olishga erishgan¹⁷.

1937-yilda S. P. Tolstov rahbarligidagi arxeologiya ekspeditsiyasining Quyi Amudaryo, Sariqamish, Uzboy va Sirdaryo quyi havzasida arxeologik dala amaliyotini olib borishi jarayonida 400 dan ziyod tarixiy davr, uning turli bosqichlariga mansub bo'lgan arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga olgan, Jonbosqal'ada, Ko'zaliqir yodgorliklarida qisman qazish ishlari olib borilishi natijasida mil. avv. VII asrga oid manbalar olingan¹⁸.

Ikkinchi tarixiy davrda quyidagi tadqiqotchilar asarlaridagi ma'lumotlar jalb qilinadi:

O'zbekiston hududidagi ilmiy markazlar, etnografiya va arxeologiya bo'limlari, arxeologik guruhlar tarixiy obidalarni ro'yxatga olish, ularning kartografiyasini ishlab chiqish, ilmiy rejaga ega bo'lgan loyiha asosida aholi turarjoylarini tizimli o'rganish maqsadida yangi arxeologik ekspeditsiya va guruhlar o'z faoliyatlarini boshlaganlar. Xorazm arxeologiya-etnografiya (1945) ekspeditsiyasi arxeologik yodgorliklarda qazish ishlarini davom ettirdi. 1945-yilda N. N. Vakturskaya, M. G. Vorobyevalar Katta Guldursun yodgorligi ichki qismida va uning mudofaa devorida olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida mil. avv. IV asrga oid ashyolarni olishga erishganlar¹⁹.

1946-yilda N. N. Vakturskaya, M. G. Vorobyevalar Mizdahkonda qazishma ishlarini olib borishlar munosabati bilan uning ilk qurilishini Kanguy davri bilan bog'lagan edi²⁰. 1946 – 1950-yillarda A. N. Bernshtamning Marhamat, Koson yodgorliklarida qazishma ishlarini olib borishi munosabati bilan olingan ashyolar mil. avv. IV – milodiy II asrlarga tegishli bo'lgan²¹.

Uchinchi tarixiy davr keyingi tarixiy davrlardan o'ziga xos mazmun va mohiyati bilan ajralib turadi. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi faoliyati yakun topgan bo'lsa-da, mahalliy hamda xorijiy ilmiy markazlar hamkorligida arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etiladi (1992). Mustaqillik yillarida qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixini o'rganishda xilma-xil loyihalar doirasida 14 dan ziyod xorijiy davlatlar bilan

¹⁶ Тереножкин А. И. Археологические разведки в Хорезме // СА. – М.: “Наука”, 1940. Вып.6. – С. 167-175.

¹⁷ Массон М. Е. Городище Старого Термеза и их изучение // Тр.Уз. – Ташкент: “Фан”, 1940. Серия.1. Вып.2. – 102 с.

¹⁸ Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 81, рис-20.

¹⁹ Вактурская Н. Н., Воробьева М. Г. Хроника работ Хорезмской экспедиции АН СССР // Тр.ХАЭЭ. – М.: “Наука”, 1952. Т.1. – С. 613.

²⁰ Вактурская Н. Н., Воробьева М. Г. Хроника работ Хорезмской экспедиции АН СССР / Тр.ХАЭЭ. М.: “Наука”, 1952. Т-1. – С. 630.; Якубовский А. Ю. Городище Миздахкан // ЗКВ. – Л., 1930. – Т.5. – 420 с.

²¹ Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – М. – Л. 1952. – № 26. – С. 228-229.

hamkorlikda arxeologik ekspeditsiyalar faoliyat olib borishi natijasida ajdodlarimizning bunyodkorlik faoliyatida sug'orma dehqonchilik va shaharsozlik madaniyati sohasida erishgan yutuqlarini yoritadigan noyob manbalar olingan. Masalan, 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali arxeologiya bo'limi hamda Avstraliyaning Sidney universiteti bilan hamkorlikda Beruniy tumanida Oqshaxonqal'ada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida antik davr jamiyatida kechgan jarayonlarni yoritishga xizmat qiladigan manbalar olingan. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra Oqshaxonqal'a yodgorligidan antik davr tarixiga mansub noyob manbalar olingan. Yodgorlikning topografik joylashishi kvadrat shaklda, maydoni hajmi 380x340 metr, to'rt tomoni 2 metr yo'lakli paxsa va kvadrat g'ishtdan tiklangan mudofaa devor to'rt tomonini o'rab olgan. Yodgorlikning ichki tuzilishi past va yuqori qismlardan iborat, shimoli-g'arbiy burchagida ibodatxona joylashgan (60x60 m.). Ibodatxonaga kirishga mo'ljallangan yo'lak devorlariga tasvirlar tushirilgan. Tasvirlarning birida hukmdor bosh kiyimi yuqori qismiga qushning rasmi tushirilgan²².

1993 – 1994-yillarda M. Mambetullayev rahbarligidagi arxeologik guruh Xiva arki va uning shimoli-g'arbiy devorida kesish ishlari olib borib, mil. avv. V asrga oid ashyolar olingan²³. 1996 – 1997-yillarda S. B. Bolelov Janubiy Xorazm hududidagi Toshsaqo zonasi Amudaryo so'l sohili hududida joylashgan Xumbuztepa yodgorligidagi qazishmalar natijasida olingan ashyolar asosida yodgorlikning mil. avv. VII asrning ikkinchi yarmi – milodiy IV asrlarda kulolchilik markazi ekanligini asoslab bergan²⁴.

1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti Xorazm arxeologiya mintaqaviy bo'limi M. Mambetullayev rahbarligidagi guruh tomonidan Xazorasp sharqiy devori ichki qismida (6x4 m.) shurf ishlari olib borilgan, dastlabki madaniy qatlamidan mil. avv. V asrga oid manbalar olingan²⁵.

2003-yilda Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeologiya bo'limi S. Baratov rahbarligidagi arxeologik guruhning Xazoraspning janubi-g'arbiy burchagida qazishma ishlari munosabati bilan ilk qurilish davrida o'rab olgan paxsa devor, yon qismi bo'ylab to'g'ri burchakli pilyastr (burj) aniqlangan.

Bundan tashqari, O'zbek – Fransiya ilmiy markazlari hamkorligidagi arxeologiya guruhi Afrosiyob va Ko'ktepada²⁶, R. X. Suleymanov Yerqo'rg'onda²⁷,

²² Ходжаниязов Г. К изучению античных памятников Ташхирманского оазиса // ТДМК. Генезис и пути развития процессов урбанизации Центральной Азии. – Самарканд, 1995. – С. 100-111.; О'sha muallif. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2007. – B. 38-42.

²³ Мамбетуллаев М. М. Археологические обоснования возраста Хивы // Хива-жемчужина мировой цивилизации. – Ташкент: "Узбекистон", 1997. – С. 7-8.

²⁴ Болелов С. Б. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепе // ОНУ. – Ташкент: "Фан". 1999. – № 9-10. – С. 85-90.

²⁵ Мамбетуллаев М., Абдиримов Р. Исследование Хазараспа // Культурное наследие Средней Азии. – Ташкент, 2002. – Б. 165-167.

²⁶ Rapin C., Isamididinov M. S., Khasanov M. La tombe d'une princesse nomade à Koktepe près de Samarkand. Akadymredes Ingeriptions of belles Lettres. Comptes rendues de syances. – Paris, 2001. – P. 35-98.; Исамиддинов М. В. Клод Рапен, Франц Грене. Раскопки на городище Коктепа // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2000 й. Самарканд; 2001. – № 1. – С. 78-79.; Исамиддинов М. С. Стратиграфия городища Коктепа и некоторые стороны истории и культуры Согдианы эллинистического периода // Традиции Востока и Запада в античной культуре Средней Азии. Сборник статей в честь Поля Бернара. – Ташкент, 2016. – С. 131-140.; Баратов С. Р. Материалы археологических исследований к истории древнего Самарканда // Согдийский сборник. Новейшие исследования по истории и культуре Согдианы в Узбекистане. – Ташкент, 2014. Вып.1. – С. 60-61.

N. Egamberdiyeva Uzunqirda²⁸, Surxondaryo viloyati hududida Germaniya, Fransiya, Chexiya ilmiy markazlari olimlari bilan birgalikda Sh. Shaydullayev Jondavlat, Hayitobod, Bandixonsoytepa²⁹ va Tillabuloqda³⁰, O‘zbekiston-Rossiya arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari Sherobod tumanidagi G‘ozqal’a yodgorligida, Ko‘hitang hududidagi Arabuloq, Qirqqiz-3, Bobolangar, Yultegida, O‘zbekiston-Chexiya arxeologlarining Zarabog‘, Qorabog‘ va Maydon qishloqlarida joylashgan Burguttepa, Qayrittepa, Tazaqo‘ton yodgorliklarida³¹ va L. M. Sverchkov Boysun tumani hududida³², E. Rtveladze, N. Dvurechenskaya Surxondaryo viloyatidagi Uzundara qal’asida³³ arxeologik tadqiqotlar olib borib, antik davrga oid ashyolarni olishgan.

B. X. Matboboyev, B. M. Abdullayevlar Sarvontepa, Mingtepa, Quva shaharlarida³⁴, A. N. Bernshtam Mingtepada³⁵, M. Pardayev Jizzax viloyatida joylashgan Qaliyatepa, Qo‘rg‘ontepa, Urdatepa va Eski Xovos yodgorliklarida³⁶, A. Asqarov Ohangaron vodiysida Tunket, Qulota, Namudlik, Oshxonatepa, Chirchiq vodiysida Kavardan, Chinoz, Mingo‘rik, Xonobodtepa, Qulonlitepada³⁷ tadqiqot ishlarini olib borib antik davrga oid bir qancha ashyolarni olishgan.

Tadqiqot ishi birinchi bobining “XX – XXI asr boshlari tarixshunosligi masalalari” deb nomlangan ikkinchi paragrafida O‘zbekiston viloyatlarida turli nomdagi arxeologik ekspeditsiya va guruhlarining keng arxeologik dala amaliyotlari natijasida ro‘yxatga olingan ajdodlarimiz tomonidan qodirilgan qabr-mozorlar, qad ko‘targan turarjoylarda keng ravishda olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan moddiy ashyolarning ilmiy tahlillari asos qilib olingan nashrlarda qayd qilingan ma’lumotlar quyidagi tarixiy davrlarga ajratilgan holda yoritib berildi:

- 1) XVI asr ikkinchi yarmi – XIX asrning 70-yillari.
- 2) XIX asr 80-yillari – 1930-yillar.

²⁷ Сулейманов Р. Х. Древний Нахшеб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э – VIII в н.э.. – Ташкент-Самарканд: “Фан”, 2000. – 342 с.

²⁸ Эгамбердиева Н. Амударё хавзаси худудларининг қадимги маданияти (мил. авв. VIII – мил. IV асрлар). – Тошкент: “Инновация Зиё”, 2020. – Б. 163.

²⁹ Шайдуллаев Ш. Б. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида): Тарих фан. докт. дисс. автореф. – Самарканд: УзР ФАН, Археологического Института, 2009. – 42 с.

³⁰ Kaniuth K. A new Late Bronze Age Site in Southern Uzbekistan // In South Asian Archaeology, 2007. – Oxford. “Archaeopress”, 2013. – P. 151-155.; Kysela I., Augustinova A., Kinaston R. Preliminary Report on the Excavations at Burgun Kurgan and Bobolangar in 2017 // Studia Hezeynia XXII, 2018, – P. 158-182.

³¹ Шайдуллаев Ш., Станчо Л., Хамидов О. Пашхурд-Зарабоғ ботиғида аниқланган Кучук-1 даврига оид янги ёдгорликлар // Қадимий Жиззах воҳаси-Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. – Тошкент, 2019. – Б. 110-114.

³² Сверчков Л. М. Археологические памятники Байсунского района // История и традиционная культура Байсуна // Труды Байсунской научной экспедиции. – Ташкент, 2005, Вып.2. – С. 10-51.

³³ Ртвеладзе Э. В., Двуреченская Н. Д. Узундара – эллинистическая крепость в Бактрии (материалы рекогносцировочно-разведывательных работ 2013 г.). – Самарканд, 2015.; O‘zbekiston arxeologiyasi jurnali, №2(11). – Б. 37-46.

³⁴ Матбабаев Б. Х., Абдуллаев Б. М. Зарождение городской фортификации Ферганы // Урбанизационные процессы в Узбекистане. История и современность. Материалы международной научно-практической конференции. Часть-1. – Ташкент, 2007. – С. 59.

³⁵ Камолиддин Ш. Фарғона қадимда ва ўрта асрларда. Мозийдан садо илмий-амалий журнали. – Тошкент, 2014. – № 2(62). – Б. 8-9.

³⁶ Пардаев М. Х. Қадим ва ўрта асрларда Уструшонада кечган урбанизация босқичлари ҳақида // Урбанизационные процессы в Узбекистане. История и современность. Материалы международной научно-практической конференции. Часть-1. – Ташкент, 2007. – С. 83.

³⁷ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: “Университет”, 2007. – Б. 42-43.

3) 1940-yillar o'rtalari – 1980-yillar.

4) 1991-2023-yillar.

Tadqiqotchilarning nashrlarida Rus davlati XVI asrdan boshlab o'zbek xonliklari bilan iqtisodiy aloqalarni olib borishga e'tibor berganligi qayd qilingan³⁸. XIX asrning 20-yillaridan Rossiya tomonidan Buxoro, Xiva xonliklari bilan iqtisodiy-diplomatik munosabatlarni o'rnatish, ularni Rossiya ta'siriga jalb qilish tashqi ishlarning ustuvor vazifasi sifatida ko'rilgan. Shu munosabat bilan Rossiyaning iqtisodiy va diplomatik vakillari N. I. Muravyev (1819-1820-yy.), G. I. Danilevskiy (1843-y.), N. I. Veselovskiy (1880-1882-yy.) Xiva xonligiga kelib, hududlarda joylashgan aholi markazlari, yo'llari, qishloq xo'jaligi to'g'risida ma'lumotlarni o'z nashrlarida qayd qilganlar³⁹.

XIX asrning 40-yillari boshida N. V. Xanikov Buxoro shahrida 24 ta toshdan va 14 ta yog'ochdan qurilgan karvonsaroylar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z asarida qayd qilgan⁴⁰. 1863-yilda venger sharqshunos olimi A. Vamberi o'z asarida Makkadan kelishi jarayonida O'rta Osiyo bo'ylab Uzboy orqali Xivaga kelish jarayonidagi kuzatishlari, Gaurqal'a, Sho'raxon yodgorliklari, Buxoroda islom ta'limi kuchli ekanligi to'g'risida qiziqarli ma'lumotlarni qoldirgan⁴¹.

XX asrning 40-yillari o'rtalaridan Xorazm ekspeditsiyasining Tuproqqal'adagi qazishma ishlari natijasida 30 ta uyxonasi ochib o'rganilib, ulardan olingan moddiy ashyolardan kelib chiqib, "podsho zali", "g'alaba zali" hamda yodgorlikning mudofaa tizimiga doir ma'lumotlar qayd qiladi⁴². Shuningdek, Xorazm shimoli-sharqiy hududida joylashgan Baraktom yodgorligidan olingan moddiy ashyolarning so'nggi antik davrga oidligi to'g'risida xulosa qilingan⁴³.

XX asrning 50-yillaridan arxeolog olim Yu. A. Zadneprovskiy Farg'ona vodiysida arxeologiya dala amaliyotini olib borib Eylaton yodgorligidagi tekshirish ishlari natijasida uning xronologiyasiga oid yangi ma'lumot yodgorlikning mil. avv. VII – IV asrga oidligi hamda "Eylaton madaniyati" tushunchasi tarixiy adabiyotlardan o'rin olgan⁴⁴.

XX asrning 50-60-yillarida Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Amudaryo o'ng va so'l hududlarida joylashgan Xazorasp, Ko'hna Uaz, Shoxsanam, Yorbakir, Manqir, Oqchagelin qal'alarining topografik joylashishi, mudofaa tizimi to'g'risidagi ma'lumotlarni keng ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qildilar⁴⁵.

³⁸ Фихнер М. В. Торговля русского государства со странами Востока в XVI в. – М.: 1952. – С. 3-5.

³⁹ Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819-1820 гг. Капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров. – М.: 1822. Часть-1, – 179 с, часть-2, – 114 с.; Описание Хивы и Хивинского ханства. Составлено в 1843 году Г. И. Данилевским, который в том же году возвратился из Хивы // Записки русского географического общества. – СПб., 1851. Кн. V. – С. 62-153.

⁴⁰ Ханьков Н. В. Описание Бухарского Ханства. – М.: 1853. – С. 88-89.

⁴¹ Вамбери А. Очерки Средней Азии. Дополнение к путешествию в Среднюю Азию. – М.: 1868. – 362 с.

⁴² Толстов С. П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция Академии Наук СССР (1945 – 1948 гг.). Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945 – 1948 гг. – М.: "Наука", 1952. Т. I. – С. 31-33. Рис. 20.

